SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ 11 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***


**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*
ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO‘PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ........................................ 11-14

*Тағбаев Амирбек Аширбаевич*
Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ........................................ 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*
ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ........................................ 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ........................................ 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*
НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ........................................ 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахаматович*
ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) .......... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

**8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*
ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........................................ 63-70

*Shao Junling*
ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KENG KO‘LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI ........................................ 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*
BANK XIZMATLARIGA BO‘LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO‘LLARI ........................................ 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*
МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ........................................ 90-96

*Yakubova Samira*
LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING ........ 97-102

*Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich*
OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI ........ 103-109

*Egamberdiyeva Salima Rayimovna*
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 110-118

*Xolmamatov Diyor Haqberdievich*
SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH ........ 119-127

*Gafurova Dilshoda*
INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS ........ 128-132

*Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich*
TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH ........ 133-139

*Raxmonov Mirvoxid Rajabovich*
NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI ........ 140-149

*Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li*
DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI ........ 150-159

*Aziza Umarova*
AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 160-167

*Абдуллаев Бунёд Ўткирович*
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 168-178

*Matjonov Bekjon Ravshonbekovich*
SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN ........ 179-185

*Алиматова Наргис Абдухалиловна*
КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ ........ 186-197

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna*
F. NITSSHE "HAYOT FALSAFASI" KONSEPSIYASI IJTIMOIY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI ........ 198-204

*Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich*
INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOIY TABIATI ........ 205-211

*Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна*
РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯУ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 212-218

*Urinboyev Dilmurod Tura oʻgʻli*
HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI...... 219-225

*Яздонов Зикирилло Шукуриллоевич*
АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ ........ 226-231

*Nabiyev Maxsud Abdumannonovich*
IQTISODIY MADANIYATNINGMAZMUNIVAMOHIYATI ........ 232-238

*Haydaraliyev Shuhratjon*
MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 239-243

*Хамраев Сардорбек Шарафутдинович*
ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ.. 244-250

*Xashimov Sheraxon Joʻraxonovich*
OʻZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN OʻRNI ........ 251-260

*Хатамова Рашида Закиржановна*
ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ........ 261-266

*Патиев Холдор Икромович*
ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ ........ 267-275

*Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna*
FARGʻONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOIY JARAYONLARDA NAMOYON BOʻLISH XUSUSIYATLARI ........ 276-280

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING OʻZARO ALOQADORLIGI ........ 281-287

*Raxmankulov Farxod Raximkulovich*
MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOIY MASʼULIYAT TUYGʻUSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 288-292

*Shirinov Anvar Qanoatovich*
MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI ........ 293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*
"OSOR AL-BOQIYA" – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI..................300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY DAVLATDA IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASH VA IJTIMOIY INSTITUTLARNING MAQSADI ..........305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*
MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI ..........312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*
DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI ..........321-326

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ауезмуратова Нуржамал Дастенбаевна*
КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..........327-332

*Olga Filippova*
ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..........333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*
INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O'ZBEK TILI O'ZLASHISH MASALALARI ..........346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*
LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..........352-357

*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna, Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi*
INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING QO'LLANILISHI ..........358-362

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Тўраев Сардор Абдихаким ўғли*
ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..........363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..........372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*
ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА ..........378-385

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*
MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..........386-390

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
O‘ZBEKISTON OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O‘QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH ........ 391-400

*Uralova Muxabbat Sanjar qizi*
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH........ 401-406

*Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich*
METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES ........ 407-411

*Abdusamatov Alisher Sobirovich*
TA’LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV ........ 412-417

*Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna*
TA’LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O`RNI ........ 418-422

*Babayeva Maxfuza Abduvaitovna*
TA’LIMDA FANLARARO BOG’LANISHNING AHAMIYATI ........ 423-429

*Nazarova Zarrina Allaberdiyevna*
MAKTAB O‘QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRIRSH USULLARI........ 430-435

*Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna*
O‘QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI ........ 436-442

*Умаров Азиз Авазович*
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ........ 443-447

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
INGLIZ TILI DARSLARIDA O’QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)........ 448-453

*Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna*
DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQARISH METODIKASI ........ 454-461

*Komilov Nodirbek Bokijonovich*
THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS ........ 462-466

*Sapieva Nargiza Mamayusufovna*
IQTIDORLI O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY–PEDAGOGIK QO'LLAB–QUVVATLASH ........ 467-478

*Norqobilova Rayxona Davlatovna*
XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI ........ 479-484

*Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich*
SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH ........ 485-492

*Irgasheva Umida Raimjanovna*
TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 493-498

*Turayeva Lolaxon Yuldashevna*
ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH VA NAMOYISH ETISH ........ 499-505

*Kushakova Gulnora Egamkulovna*
TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ........ 506-510

*Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna*
OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI ........ 511-518

*Xasanova Gulnoza Raxatjanovna*
KREDIT-MODULLI TA’LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI ........ 519-525

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 11 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Kucharov Jamshid Qulnazarovich**
Qarshi DU O‘zbekiston tarixi kafedrasi.
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD.

## ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO‘PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolalarda Rossiyaning janubida paxta yetishtirishning muvofaqiyatlari yuqorida ko‘satilgan hududlarda sun’iy sug‘orish ishlarini qo‘llamay turib paxta hosilini olish mumkinligi shu paytgacha tajribalar natijasida isbotlanganligini ma’lum qiladi.
**Kalit so‘z:** “Turon” gazetasi, paxtachilik komiteti, birja komitetlari, yer egalari, zemstvolar, plantatsiyalar.

**Kucharov Jamshid Kulnazarovich**
Department of History of Uzbekistan, Karshi State University,
Doctor of Philosophy in History, PhD.

## SOME REMARKS ON RUSSIAN EXPERIMENTS IN COTTON GROWING (BASED ON THE MATERIALS OF THE TURKESTAN COLLECTION)

**Abstract.** In these articles, the successes of cotton cultivation in the south of Russia, it is reported that it is possible to get a cotton crop without the use of artificial irrigation in the above-mentioned regions as a result of experiments.
**Key words:** "Turon" newspaper, cotton-growing committee, stock exchange committees, landowners, zemstvos, plantations.

**Кучаров Жамшид Кулназарович**
Кафедра истории Узбекистана, Каршинский государственный университет, Доктор философии по истории, PhD.

## НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О РОССИЙСКИХ ОПЫТАХ ПО ВЫРАЩИВАНИЮ ХЛОПКА (ПО МАТЕРИАЛАМ ТУРКЕСТАНСКОЙ КОЛЛЕКЦИИ)

**Аннотация.** В этих статьях, об успехах выращивания хлопка на юге России, сообщается, что в результате экспериментов в вышеупомянутых регионах можно получить урожай хлопка без применения искусственного орошения.
**Ключевые слова**: газета «Турон», хлопководческий комитет, биржевые комитеты, помещики, земства, плантации.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N01

XIX asr ikkinchi yarmida Yevropa va Rossiyada sanoat taraqqiyotining natijasida xom ashyoga boʻlgan talab muntazam oshib borganligini koʻrish mumkin. Rossiya imperiyasi Turkiston oʻlkasini istilo qilib, ushbu hududlarni oʻzining sanoat mahsulotlari sotadigan va xom ashyo yetkazib beradigan bozoriga aylantirish siyosatini olib borgan boʻlsa-da, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hali ham paxta xom — ashyosini asosan Amerika va Misrda yetishtiriladigan yarim fabrikant yoki xom — ashyo tashkil qilar edi. Shuning uchun Rossiya hukmron doiralari birinchi navbatda zavod fabrika egalari, paxtachilik komiteti, birja komitetlari Rossiyaning janubidagi zemstvolar, qishloq xoʻjaligi jamiyati, yirik yer egalari ulkan Rossiya imperiyasi hududida paxtachilikni taraqqiy ettirish uchun turli tuman yoʻllar bilan paxta ekiladigan maydonlarni koʻpaytirish, paxtachilikdan moʻl hosil olish xususida turli ishlarni, tajribalarni amalga oshira boshladilar[1].

Rossiyada paxtachilikning taraqqiyoti va tashqi bozorga xom — ashyo qaramligidan qutilish maqsadida bir qator amaliy qadamlar tashlandi. Turkiston toʻplamining bir qator sonlarida bu xususida maʼlumotlar mavjud. Jumladan, Turkiston toʻplamining 575 tom 135 — 138 betlarida K. A. Timaevning "(Turk. kur., 1909, № 61)", shu toʻplamning 522-tom 142 betdagi "Kultura xlopchatnika na yuge Rossii. (Nov. Vremya, 1909, № 12128)" va boshqa bir qator maqolalarda Rossiyaning janubi, yaʼni Qora dengiz va shimoliy Kavkaz hududlarida paxta yetishtirish bilan bogʻliq ayrim maʼlumotlar keltiriladi.

"Novogo vremeni" gazetasi bergan maʼlumotlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa maʼlum boʻladiki, Rossiya hukmron doiralari va yirik yer egalari, shuningdek paxta xom — ashyosiga ixtisoslashgan zavod — fabrika egalari Rossiya janubida paxta xom — ashyosini yetkazishdan asosiy maqsadlari Amerika va Misr paxtasi uchun har yili 10 millionlab rubl miqdorida sarf xarajat qilishlari bundan tashqari tashqi bozorga qaramlikning kuchayishi, Liverpul va Nyu — York birjalarida paxta xom — ashyosi narxining doimiy oshib borayotganligi tashvishga solgan. Rossiya sanoatchilarini paxta xom ashyosi bilan taʼminlashda muhim oʻringa ega boʻlgan Amerika bozori turli siyosiy, tabiiy sharoitlarda oʻzgarib turganligini ham koʻrishimiz mumkin. Buxoro amirligining dastlabki matbuot organi hisoblangan "Buxoroi sharif" gazetasining 1912 yil 2 — apredagi 19 – sonidayoq, Amerika paxtasi xususida maʼlumot beriladi. Jumladan, Buxoroi sharifning 19 — sonidagi "Telegraf xabarlari" ruknida: "Biz Nyu — York birjasida paxta qiymatining oshayotganligi toʻgʻrisida xabar bergan edik. Buning sababi, Missisipi daryosi toshib paxta ekiladigan yerlarni katta qismini vayron qilgan[3]"- kabi maʼlumotlarni oʻqish mumkin.

Yuqorida keltirilgan bir qator sabablarga koʻra Rossiyaning sanoat va moliya doiralari imperiyaning janubida paxtachilikni yoʻlga qoʻyishga harakat qilganlar. "Novogo vremeni" gazetasi xabariga koʻra necha yil davomida xususiy shaxslar va ayrim hududlarda oʻtkazilgan tajribalarga qanoat hosil qilmay Rossiya hukmron doiralari birja rahbarlari yirik va yer egalari, zavod — fabrika xoʻjayinlari Rossiyaning janubiy hududlari hisoblangan Qora dengiz boʻylari va shimoliy Kavkazda uch yillik tajriba oʻtkazish uchun butun boshli hududlar va tumanlarni moʻljallaganliklarini maʼlum qiladi[4].

Imperiya ichki bozorini Turkistondan olib ketiladigan paxta xom — ashyosi hali toʻliq qoplay olmas edi. 1908 yilgi maʼlumotlarga qaraganda Rossiya imperiyasi Fargʻona viloyatidan 6.762.736 pud, Zakaspiy viloyatidan 768.714, Sirdaryo viloyatidan 505.758 pud, Samarqand viloyatidan 510.879 pud, Buxoro va Xiva hududlaridan 2.023.504 pud, butun Oʻrta Osiyo mintaqasidan esa 10 million 571 ming 591 pud miqdorida paxta xom – ashyosi tashib ketgan.

Bu vaqtda Rossiyaga qaram hisoblangan Kavkaz orti mintaqasida 1 million 147 ming 390 pud taxta yetishtirilgan, xolos. Butun Rossiya imperiyasiga qaram hududlarda esa 1908 yilgi maʼlumotlarga koʻra 11 million 718 ming 98 pud paxta xom — ashyosi yetishtirilgan xolos[5.190-191].

Oʻrta Osiyodan olib ketilayotgan xom — ashyoning Rossiya imperiyasi ehtiyojini toʻla qondirmaganligi sababli imperiya ishbilarmon doiralari katta foyda orqasidan quvib sanoat korxonalariga yaqin hududlarida paxta plantatsiyalari tashkil qilishga kirishganlar. Shu sababli yuqorida zikr qilingan "Novogo vremeni" matbuot organi hukumat aralashuvi bilan birinchi bor Odessa hududlarida jiddiy ravishda katta paxta plantatsiyalari tashkil etish va ularni 5 yil davomida sinov — tajribadan oʻtkazishni moʻljallaganligi, bu ishga dehqonchilik departamenti oʻtgan (1908 y) yili unchalik katta boʻlmagan mablagʻ ajratib janubiy Rossiyaning turli hududlarida va shimoliy Kavkazda paxta plantatsiyalarini tashkil etishni moliyalashtirganligini, oʻtgan yilgi natijalar muvaffaqiyatli oʻtganligi, bu esa yirik yer egalari va fabrikantlarda qiziqish ortishiga sabab boʻlganligi, Rossiya janubi va shimoliy Kavkazdagi 6 million desyatina yerga paxta plantatsiyalari tashkil qilish mumkinligi isbotlaganligi, agar ushbu hududlarga ham paxta ekiladigan boʻlsa, Rossiya bozorlariga chet el mahsulotlarini kirib kelishini oldini olib, mamlakatning ichki bozorida 100 millionlab rublni tejash imkonini berishini, buning uchun esa zavod — fabrika egalari, paxtachilik komiteti, birja komitetlari, yer egalari, zemstvolar va qishloq xoʻjalik jamiyati birlashib harakat qilishi zarurligi, shundagina tashqi bozorga qaramlikdan qutulish mumkinligi bayon qilinadi[5.190-191].

Rossiya hukmron doiralari tashqi bozordagi paxta xom — ashyosiga qaramlikni tugatish maqsadida "paxta komiteti" tashkil etib, ushbu komitet orqali qator ishlarni amalga oshirganliklarini Turkiston toʻplami maʼlumotlaridan bilib olishimiz mumkin. Jumladan, M. Bushuevning "Trudy xlopkovogo komiteta. (Turk. sel. xoz-vo,1908, № 4)", Maqolasi, bundan tashqari "Zasedanie xlopkovogo komiteta. (Usloviya sdachi v konsessiyu polk. Voeykovu orosheniya Dalverzinskoy stepi). (Turk. kur., 1908, № 85 i Torg.-promыshl. gaz., 1908, № 85)", "Deyatelnost xlopkovogo komiteta. (Turk. kur., 1909, № 233)", "Deyatelnost xlopkovogo komiteta. (Golos Moskvы, 1909, № 234)", "Zasedanie xlopkovogo komiteta. (Torg.-promыshl. gaz., 1909, № 13 i Spb. Bed., 1909, № 13)", N. I. Malaxovskiyning "Zasedanie xlopkovogo komiteta. (Torg.-promыshl. gaz., 1909, № 50)" va boshqalarni misol keltirish mumkin[6.131-139]. Yuqoridagi fikrlardan koʻrinib turibdiki, Rossiya imperiyasining paxta xom — ashyosiga boʻlgan talabini ichki imkoniyatlar darajasida qondirish XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Rossiya iqtisodiy siyosatining kun tartibidagi asosiy masalalaridan biri boʻlgan. Shu maqsadda yuqorida zikr qilingan Rossiyaning sanoat markazlariga yaqin hududlarida paxta plantatsiyalarini tashkil etish chora tadbirlari koʻrilgan. Odessadan tashqari Qora dengiz boʻylari va shimoliy Kavkazda paxta plantatsiyalari tobora kengaytirilib borilgan. Turkiston toʻplamining 518 — sonida Tbilisi guberniyasida 1909 yili paxta yigʻim terim mavsumi 18 — 20 sentyabrda boshlanganligi paxtaning bir pudiga 30 — 70 tiyindan toʻlanayotganligi ushbu hududda paxta yetishtirish rivojlanib borayotganligi atigi 2 yil oldin Tbilisi guberniyasida 20 — 30 desyatinadan oshmagan hududlarga paxta ekilgan boʻlsa, hozirda katta — katta plantatsiyalarida paxta ekish ishlari yoʻlga qoʻyilganligi taʼkidlangan. Bundan tashqari Kutaisi guberniyasida 1909 yili 700 desyatina yerga paxta ekilgani, paxtalar oʻtgan yilgidan koʻra 10 — 15 kun oldin yetilganligi, Kutaisining tabiiy — iqlimiy sharoitidan kelib chiqib, yuqori sortli paxta xom — ashyosi yetishtirish mumkinligi, ammo ishchi kuchi yetishmasligi, hudud

aholisining paxtachilikka yetarli darajada ragʻbat koʻrsatmayotganligi, paxtachilik ishini aholi orasida targʻib etuvchi instruktorlarning yetishmasligi bunga sabab boʻlayotganligi xususidagi fikrlar bildiriladi[7].

Rossiya janubi va Kavkaz hududlarida paxta xom — ashyosini yetishtirish bilan bogʻliq koʻplab fikr mulohazalar tajribalar va ularning natijalari haqidagi maʼlumotlar Turkiston toʻplami maʼlumotlarida koʻplab uchraydi. Ushbu maʼlumotlardan maʼlum boʻladiki, ushbu hududda paxta yetishtirish ancha qimmatga tushganligini, mahalliy holining paxtachilik ishiga ragʻbat koʻrsatmaganligini koʻrishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan birgina Tbilisi guberniyasidagi bir pud paxta hosili uchun 30 — 70 tiyin sarflangan boʻlsa, Turkiston mintaqasida ishchi kuchining arzonligi koʻpchilik rus sanoatchilarini qanoatlantirganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. 1912 yil Buxoro Amirligida chop etilgan ilk matbuot organlaridan biri “Turon” gazetasi sahifalarida paxta xom — ashyosi narxi bilan bogʻliq ayrim maʼlumotlarni keltirish orqali, Turkiston oʻlkasida ushbu strategik xom ashyoning soʻngi uch yillikda narxi oshmagan holda, uni yetishtirish va tashib ketish koʻpayishi bilan bogʻliq maʼlumotlarni koʻrishimiz mumkin. “Turon” gazetasining 1912 yil 19 — dekabrda chop etilgan 44 – sonida: Fargʻonada paxta bahosi bir pud hisobida – 13 soʻm, 30 tiyindan, 13 soʻm 50 tiyingacha, Andijonda paxtaga 13 soʻm 50 tiyin narx qildilar. Hoʻqand oliy navli paxtasining bir pudi 13 soʻm 60 tiyin, birinchi navli paxta 13 soʻm, 15 tiyin, Margʻilon paxtasining bir pudi – 13 soʻm 40 tiyin,[8]” – kabi maʼlumotlar keltiriladi. Bu esa ishchi kuchi arzonligiga yana bir dalildir. Yuqoridagi fikrlardan koʻrinib turibdiki, Rossiya hukmron doiralari sanoatchilari va moliyachilarining imperiya janubiy hududlari hisoblangan Qora dengiz boʻylari va Kavkazda yirik paxta plantatsiyalari tashkil qilish orqali Rossiyaning xom ashyoga boʻlgan ehtiyojini qondirishga boʻlgan urinishlari bir qator sabablarga koʻra ijobiy natijaga erishmadi. Birinchidan, ushbu hududlarda aholining paxtachilikka boʻlgan munosabati ijobiy boʻlmaganligi sabab boʻlgan boʻlsa, ikkinchidan, ushbu mintaqadagi ishchi kuchining qimmatligini yuqorida keltirilgan dalili orqali koʻrishimiz mumkin. Shu sababli, imperiya maʼmurlari Turkiston oʻlkasida ushbu xom ashyoni yetishtirishga va yil sayin koʻpaytirishga harakat qilganlar.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Хлопок. (Мировая продукция). (Торг.-промышл. газета, 1906, № 74, 129, 153, 160, 165, 175, 187, 192, 200, 201, 205, 220). Туркестанский Сборник. Т.- 522. – С. 101-118.
2. Культура хлопчатника на юге России. Туркестанский Сборник. Т .- 522. – С. 142.
3. Телеграф хабарлари // Бухорои шариф. 19-сон. 1912. 2 апрел
4. Культура хлопчатника на юге России. Туркестанский Сборник. Т .- 522. – С. 142.
5. Вероятный урожай хлопка в России. Туркестанский Сборник. Т .- 496. – С. 190-191.
6. Бушуев М. “Труды хлопкового комитета. (Турк. сель. хоз-во,1908, № 4)”, Туркестанский Сборник. Т. - 500. – С. 131-139.,
7. Виды на урожай хлопка в Россия К. 17 августа 1909 г. Туркестанский Сборник. Т. - 518. – С. 155-160.
8. Туркистон хабарлари // Турон; 44 – сон, 1912 йил, 19 декабрь.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).